

**MAVSUMIY MAROSIMLARING XALQ DUNYOQARASHIDAGI O'RNI***Mirzayeva Komila Sheraliyevna**Termiz ixtisoslashtirilgan**san'at maktabi o'qituvchisi.**Madaniyatshunoslik va nomoddiy**madaniy meros ilmiy tadqiqot**instituti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada inson hayoti davomida turmush tajribalari, mehnat jarayonlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan mavsumiy marosimlarning shakllanishi, amaliy ahamiyati, xalq hayotidagi vazifalari haqida batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar;** marosim, bahor, Shox moylar, Loy tutish, Navro'z, an'ana, dehqon, aytim, folklor, xalq, shamol chaqirish.

**Abstract;** This article discusses in detail the formation, practical significance, and functions of seasonal rituals that have emerged in connection with human life experiences and labor processes throughout life.

**Keywords;** ritual, spring, Horn oils, Mud holding, Navruz, tradition, farmer, song, folklore, people, calling the wind.

**Kirish**

Ma'lumki, inson hayotining muhim nuqtalarini nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga kirib qolgan hatti-harakatlar marosim deyiladi. Marosimlar an'anaviyligi, turli-tuman hodisalarni tabiat hodisalariga ta'sir ko'rsatishiga intilishi bilan ijtimoiy hayotda katta o'rin tutadi. Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga kirib qolgan xatti-harakatlar "marosim" deyiladi. Marosimni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar "marosim folklori"ni tashkil etadi. Mavsumiy marosimlar yilning to'rt fasliga oid halqning yashash va mehnat tarzi bilan aloqadordir. Bahor kirishi bilan dehqon va chorvadorning dala ishlari boshlanadi. Dehqon urug' sepishga tayyorgarlik ko'rish, ariqlarni kovlash bilan shug'ullansa, chorvador yaylovlarga ko'chib chiqqan. Dehqon va chorvador turmushidagi barcha og'ir yumushlar ilgari hashar yo'li bilan amalga oshirilgan.

**Tadqiqot tahlili**

Kishilarning xo'jalik faoliyatida yoz faslining o'rni alohidadir. Shunga qarab ushbu faslda o'tkaziladigan marosimlar rang-barang bo'lgan. Biroq o'zbek marosim folklorida hozirga qadar atigi bitta janr saqlanib qolgan. Yozgi marosimlar folkloridan

faqat shamol to'xtatish bilan bog'liq ayrim janrlar saqlangan. Kuz faslida dehqon yoz bo'yi qilingan mehnatining samarasini yig'ishtirib oladi, chorvador esa qishlovga em-xashak, ozuqa tayyorlaydi. Kuzgi marosimlarga "Oblo baraka", "Shamol chaqirish", "Mirhaydar bobo", "Galagov", "Xo'p mayda" marosim qo'shiqlari kiradi. O'zbek xalq folklorida qishgi marosimlardan faqatgina "Gap-gashtak" va "Yas-sun" marosimlarigina saqlanib qolgan. "Gap-gashtak" marosimi erkaklar tomonidan mahalladagi choyxona yoki biror xonadonda o'tkaziladi. "Yas-sun" marosimi asosan ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida "Qimizxo'rlik" marosimi sifatida yuzaga kelgan bo'lib, uning ma'nosi davrada o'tirish qoidalari demakdir. Surxondaryo hududida yashovchi aholining taqvimiy marosimlari folklori o'zining mavsumiy xarakter kasb etishi va funksional-tarkibiy tuzilishiga ko'ra bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki marosimlar folkloriga bo'linadi. Mavsumiy marosimlar folklori janrlari o'zbek xalqining qadimgi ilohiy tasavvurlari hamda vaqt hisobini yuritish bilan aloqador an'anaviy taqvim asosida yuzaga kelgan. Etnofolkloristik tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bu hududda mavsum bilan bog'liq quyidagi folklor janrlari va marosimlari mavjud:

Birinchisi bahor fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori – "Navro'z", "Sumalak sayli", "Sumalak bazmi", "Yilboshi", "Yil ayrilish oshi", "Qo'sh, oshi", "Shoxmoylar", "Darvishona", "Sust xotin", "lola sayli".

Ikkinchisi yoz fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori – "Xayri xudoyi", "Tulki to'yi", "Shog'ol qochdi", "Quyvon qochdi", "Baraka urug'i", "Oblo baraka", "Suv sayli", "Qovun sayli",

Uchinchisi kuz fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori – "Mehrjon bayrami", "Shinni pishirish", "hosil bayrami", "Hosil to'yi";

To'rtinchisi qish fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori – "Birinci qor", "Qor xat, "Sherda" - Gap-gashtak, "Dangona".

Navro'z bayramining nishonlanishi munosabati bilan Surxon vohasida "Yilboshi oshi", "Yil ayrilish oshi", "Loy tutish", "Qush oshi, "Shox moylar", "Darvishona" singari mavsumiy marosimlar o'tkazilgan.

### **Muhokama va natija**

Ariq va kanallar qazish paytida "Loy tutish" marosimi o'tkazilgan. Loy tutish xarakteriga ko'ra agrar marosim bo'lib, quyidagicha o'tkazilgan. Biror kishi ariq qazuvchilar yonidan o'tib qolsa, unung qo'liga ketmon yoki belda loy tutishgan. U tutilgan loyni ketmon yoki bel bilan olishi shart. Mana shundan keyin u o'zining biror hunarini ko'rsatib qutulib ketishi kerak; qo'shiqchi bo'lsa qo'shiq aytishi; baxshi bo'lsa, doston yoki terma kuylashi; polvon bo'lsa, kurash tushishi; temirchi bo'lsa, ariq qazish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalarini ta'mirlab berishi yoki yangilarini hadya etishi lozim. aytilgan hunarlardan birortasi bo'lmasa, belgilab berilgan yerning arig'ini qazib berishi yoki aroq qazuvchilarni mexmon qilishi kerak.

Mazkur marosim haqida Sherobodlik marhum baxshi Bo'ri Axmedovdan yozib olingan birgina ma'limotdan boshqa hech qanday material saqlanib qolinmagan. Uning xabar berishicha, bir kuni otasi axmad baxshi tasodifan Zang kanalini (Sherobod hududidagi katta kanal) qaziyotganlar oldidan o'tib qoladi. Shu payt hasharchilar unga belda loy tutishadi. Axmad baxshi loyni olish bilan hasharchilarga murojat qilib, quyidagi she'riy topishmoqni aytadi;

Hoji akam hajga ketdi

Bilmadim kujo ketdi

O'n ikki jumurtqadan

Qirq sakkiz jo'ja ketdi

Topishmoqning javobi-bir yil o'n ikki oy, qirq sakkiz haftadan iboratligini aytish. Biroq hasharchilar dan hech kim topishmoqqa javob topa olmaydi. Shunday qilib, Axmad baxshi hasharchilardan qutilib ketadi.

Demak loy tutish yumor bilan sug'orilgan marosim bo'lib, u kishilarni mexnatga ruhlantirish, ularning kayfiyatini ko'tarishga xizmat qilgan.

“Darveshona” marosimi Har yili yilboshi saylida yoki Navro'z bayrami tantanalari davomida “Darveshona” marosimi o'tkazish va qishloq ahli, mahalla-kuydan yig'ilgan don-dundan go'ja oshi pishirib, elga tarqatish Surxon vohasi mavsumiy marosimlari tizimida alohida o'rin tutgan. Chunki bu marosim yil barakali kelishini, odamlar orasida o'lim kam bo'lishini va qishloq ahli sihatsalomat bo'lishini, shuningdek, ayrim holatlarda yil qurg'oq kelsa, yog'in-sochin ko'p bo'lishini tilab o'tkazilgan. Bu marosimda ko'pincha “Go'ja oshi” pishirilgan. “Go'ja oshi” yoki “Ko'cha oshi” pishirish an'anasi ba'zi qishloqlarda “Qo'sh oshi” deb ham yuritilgan. Ammo buning “Darveshona”dan farqi shundaki, “Darveshona” taomini erkaklar pishirishsa, “Qo'sh oshi” dalaga birinchi marta qo'sh chiqarilgan kuni ayollar-momolar tomonidan tayyorlangan. Folklorshunos Rahmatilla Mo'minov Sho'rchi, Sariosiyo, Boysun, Qumqo'rg'on, Denov tumanlarida yashovchi aholi orasida qadimdan urf bo'lib kelgan “Go'ja oshi” pishirish udumiga doir etnografik manbalar hamda folklor asarlarini to'plab, shu asnoda o'ziga xos sahnaviy talqin yaratgan. Bu dasturda “Go'ja oshi” marosimi aks etgan bo'lib, bir-birlariga ko'ngil qo'ygan yigit bilan qiz qo'llarida tol taboq hamda kadi bilan sahnaga chiqishadi. Har yili bahorda an'anaviy tarzda o'tkazilgan “Go'ja oshi” marosimi manzarasi tomoshabin ko'z o'ngida to'la namoyish etiladi. Marosimning sahnaviy talqini chanqovuz, nay, doyra, do'mbira kabi milliy cholg'u kuylari, qo'shiq va raqslar orqali ifodalangan bo'lib, yigit bilan qiz go'ja solingan tol taboq bilan kadini ko'targancha, quyidagi qo'shiqni ijro etib, raqs tushadilar:

Yigit: - Osh bo'lsa, go'ja bo'lsa, ichida moshi bo'lsa,

Hap kimning sevgan yori, yonida qo'shni bo'lsa,

Hay yori-yorim o'ynasin, kelib suyganim o'ynasin!

Qiz: - Ro'molimning uchini, to'ymaganga to'ydiray,  
 Qoshimga o'sma qo'yib, kuymaganni kuydiray,  
 Hay yori-yorim o'ynasin, kelib suyganim o'ynasin.

“Yanchiq qo‘shiqdari”da o‘rilgan donni yanchish uchun xirmon qilinadi, buning uchun doni ajratilmagan bug‘doy doira shaklida yoyib qo‘yiladi. Doira markazida yo‘g‘on ustun o‘rnatiladi. Bir necha ho‘kiz, ba‘zan esa ot yoki eshak bir-biriga yonma-yon matab qo‘yiladi. Ustun yonidagi hayvon esa ustunga bog‘lanadi. Birbirlariga matab qo‘yilgan hayvonlar esa galagov deyiladi. Galagovga xirmondagi poxolni tekislab borish uchun tut, qayrag‘och kabi qattiq daraxtlarning shoxidan to‘qilgan chakar bog‘lab qo‘yiladi. Dehqon galagov haydab kun bo‘yi xirmonda don yanchar ekan, baland ovoz bilan yoki xirgoyi qilib qo‘shiq kuylagan. Ana shu qo‘shiqdar xalq o‘rtasida “Xo‘p qo‘shiqdari”, “Maydalar”, “Xo‘p maydalar” yoki “Mayda gul” deb yuritiladi. Mayda qo‘shiqdari mungli ohangda cho‘zib aytiladi. Ularda dehqonning yoz bo‘yi qilgan og‘ir mehnati natijasida yetishtirilgan hosilni tezroq yanchib olish istagi bayon etiladi. “Yorg‘uchoq qo‘shiqdari”ning muhim o‘ziga xosliklaridan biri faqat ayollar tomonidan ijro etilishidir. Yorg‘uchoq aylantirish og‘ir va unumsiz qo‘l mehnati bo‘lib, u o‘zining tarixiy ildizdari bilan suv yoki shamol tegirmoni kashf etilmagan davrlarda vujudga kelgan. Keyinchalik u tog‘li joylarda yashovchi chorvadorlar, shuningdek, cho‘l va dasht hududlarida kun kechiruvchi dehqonlar turmushida keng qo‘llanila boshlangan. Kun bo‘yi yorg‘uchoq tortish kishini jismoniy va ma‘naviy jihatdan qattiq charchatgan. Shu bois ham yorg‘uchoq aylantirish paytida aytiladigan maxsus qo‘shiqdar yaratilganki, ularda mehnat kuylangan. O‘rta Osiyo xalqlari qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelishgan. O‘zbeklar hayotida dehqonchilik qanday o‘rin tutgan bo‘lsa, chorvachilik ham shunday o‘rin egallagan. Shuning uchun o‘zbek xalq og‘zaki ijodida chorvachilikka asoslangan marosimlar qo‘shiqdaridan ko‘proq “sog‘im qo‘shiqdari” saqlanib qolgan. Xalq orasida bu qo‘shiqdar hayvonning turiga qarab, “ho‘sh-ho‘sh”, “turey-turey”, “Churey-churey”, “chiriya-chiriya” kabi nomlangan.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Surxon vohasi aholisining an‘anaviy mavsumiy-marosim qo‘shiqdari bu hududda istiqomat qiluvchi kishilarning o‘ziga xos turmush tarzi, kundalik mashg‘uloti va vaqt hisobining muayyan davrlari bilan aloqador urfodat hamda rasmlarini o‘zida aks ettirganligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin milliy qadriyatlarimiz, urfodatlar va marosimlar, shuningdek folklor musiqa san‘atimiz ham qayta tiklandi hamda rivojlantirildi. Respublikamizdagi barcha folklor-etnografik jamoalari yangi yangi repertuarlarida ko‘plab unutilib ketayozgan marosimlarni xalq orasidan yig‘ib olib, uni zamonaviy talqin qilib, sahnaga olib chiqdilar. Mavsum-marosim bilan aloqador ko‘pgina qo‘shiqdar va ayimlarning an‘anaviy matnlari hozirga qadar folklor namunasi sifatida

o'zining jonli ijro holatini saqlab qolgan. Keyingi yillarda Surxondaryo viloyatida ko'plab folklor-etnografik ansambllar tuzilganligi va hududga xos folklor an'analarini saqlab qolish va yangicha badiiy shaklda sahnaviy talqin qilish, bunday jamoalar faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylanganligi mavsum-marosim folklori manbalarining badiiy jihatdan "qayta ishlangan", ya'ni "qayta poetik idrok etilgan" sahnaviy folklorizm tarzidagi talqinlari yuzaga keldi. Ayniqsa viloyatimizdagi "Boysun" folklor-etnografik xalq ansambli, "Bulbuligo'yo" folklor-etnografik xalq ansambli, "Quralay" bolalar folklor-etnografik namunali xalq ansambli, Termiz davlat universiteti qoshidagi "Jayhun" folklor-etnografik xalq ansambllari marosim folklorining ochilmagan qirralarini topib sahnaga olib chiqishda faol ish olib bordilar. Marosim folklori qo'shiq va raqslarining barkamol avlod tarbiyasiga ahamiyati kattadir. Mehnat marosim folklori qo'shiqlari yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda, oilaviy-maishiy folklor qo'shiqlari sevgiga sadoqat, oilaparvarlik ruhida, mavsumiy marosimlar qo'shiqlari esa, milliy qadriyatlarni qadrlash, ularni avaylab asrash, ulug'lash ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning eng qadimgi ohanglarida abadiy go'zallik va ko'rkamlik bor. Ko'hna navolarda bobolarimiz va momolarimizning dil ohanglarini eshitganday bo'lamiz. Bu qo'shiqlar ko'nglimizning tub-tubida yotgan so'lim tuyg'ularimizni uyg'otadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. X. Nurmatov «O'zbek xalq musiqasi». Toshkent. O'qituvchi nashr. 1998 y.
2. Sh.Raximov. «Cholg'u ijrochiligi va ansambli». «Dutor». «Fan» nasoriyoti. 2007 y.
3. Sh.Raximov. X Nurmatov."Cholg'u ijrochiligi tarixi " o'quv qo'llanma. T.2009 y.
4. Sh.Raximov O.Nazarov..Sh.Jonaydarov. "Cholg'u ijrochiligi ansambli".o'quv qo'llanma. T. 2005 yil.
5. I. N. Qosimov "Musiqqa folklor ijrochiligi". Toshkent. G'. G'ulom. 2003 yil.
- 6.O'. Toshmatov "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi". Toshkent. G'.G'ulom. 2015 yil.
- 7.U. Qoraboev "O'zbekiston bayramlari". Toshkent. O'qituvchi. 1991 yil.
- 8.O. Bo'riev "Navro'z tarixidan lavhalar". Toshkent. O'zbekiston. 1991 yil.
- 9.B. Sarimsoqov "O'zbek marosim folklori". Toshkent .1975.